



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

**"TEMURBEKLAR TO'GARAGI"
HUJJATLARI**

**KATTA GURUH
NAMUNA**

BUYUK SARKARDA




Amir Temur - bizning sha'n-shavkatimiz,
g'urur iftixorimizdir. Amir Temur - xalqimiz
dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz
ramzidir.

I.A.Karimov.


Biz kim, mulki turon, Amiri Turkistonmiz.

**Biz kim, millatlarning eng qadimi va
eng ulug'i - turkning bosh bo'ginimiz.**

Amir Temur.



**Amir Temur
bin Tarag'ay
(1336-1405)**



Temuriyalar tarixi davlat muzeyi.

Amir Temur timsolida biz Vatanimizni yomon kuzlardan,
balo –kazolardan asrashga kodir, kerak bulsa ,
bu yulda jonini xam fido kilishga tayyor bo'lgan a'zamat
o'g'lonlarimiz – bugungi Temurbeklarning ma'naviy
qiyofasini kuramiz.

Sh.M.Mirziyoev

KIRISH

Ta’limliy farzand – komil inson bo‘lgay,
Tarbiyaliiy farzand – xazrati insondur

Abdulla Ahmad

Yosh avlodni ona-Vatanga, ota-bobolar merosi va pand- nasihatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ular qalbida milliy g‘urur, fidoiylik tuyg‘usini shakllantirish, ular ongiga milliy mafkurasini singdirish kichiq maktabgacha yoshdan boshlanadi. Kichkintoylarga ona-Vatanimiz haqida so‘zlab, uni sevish, ardoqlash, unga munosib farzand bo‘lishlik haqida suhbatlashib, ular qalbida Vatan tuyg‘usini shakllantirib boradilar.

Muxtaram prizidentimizning jonkuyarligi, g‘amxo‘rligi bilan yosh avlodni xar tomonlama bilimli va ma’nan etuk qilib tarbiyalashda yaratilayotgan sharoitlar natijasida ushbu yilda maktabgacha ta’limni yanada takomillashtirish bo‘yicha 2021-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturida keng qo‘lamli vazifalar o‘z ifodasini topgan. Zero, jamiyat taraqqiyotida eng avvalo uning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va ilmli, o‘z yurtini sevadigan, ota–bobolarining ma’naviy va axloqiy yuksak qadriyatlarini e’zozlaydigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kurmatli Prizidentimiz Sh.M.Mirziyoevning tabirlari bilan aytganda - *Bolalarning qiziqish va intilishini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo‘lgan davrda har tomonlama puxta ta’lim-tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish orqali ularni ona Vatanga muhabbat ruhida kamol toptirish masalasi davr talabidan ortda qolayotgani sababli maktabgacha ta’limning boshqaruvi tizimi qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.*

Farzandlarimizning maktabda qanday o‘qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko‘p jihatdan maktabgacha ta’lim tashkilotidagi tarbiyaga bog‘liq. Ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda olishi aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta’limning o‘rnini nechog‘li muhimligidan dalolat beradi. Shunday ekan tarbiyanuvchilarning yukori darajaga etishishida pedagog xodimlarning xizmati bekiyosdir. Shu bilan birga, yildan – yilga ota – onalar va tarbiyanuvchilarning bilim olishga bulgan munosabatlari ijobjiy tomonga uzgarib bormokda.

Tarbiyanuvchilarning xar tomonlama jismoniy , ma’naviy va akl zakovotli bolalar bulib kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning tarbiyasida pedagogika, psixologiyaning zamonaviy usullarini kullash, erkin fikrlash kunikmalarini shakllantirish, eng yaxshi an‘anlarimiz va urf –odatlarimiz asosida bolalarga vatanga, xalkka muxabbat va sadokat, milliy va umuminsoniy kadriyatlarga xurmat ruxida tarbiyalashda ota –onalar, ta’lim tashkilotlar roli muxim ahamiyatga ega.

Ushbu «Temurbeklar» nomli metodik kullanma nomlanishi uzi katta ma'noga egadir. Sohibqiron bobomizning muborak nomi, tarixiy siyoshi, boy merosi va noyob durdonasidir. Sohibqiron Amir Temur shaxsiyati jahon tarixida juda kam uchraydigan xodisadir.

”Buyuk shaxslarni millat qayg‘usi, xalq dardi yaratadi”,- degan edi Prizidentimiz. Chindan xam, millat qayg‘usidan, xalq dardidan yaralgan bobomizday zotning dunyoga kelishi zamон zarurati va talabiga aylandi, boshqacha aytganda, tarix va zamон o‘z qahramonini o‘zi jahon maydoniga olib kirdi.

Amir Temur xaqida qisqacha ma'lumot: - Amir Temur, Temurbek, to‘liq aytsak Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay milodiy 1336-yil 9-aprel kuni Kesh (hozirgi Sharhrisabz) yaqinidagi Ho‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan.

Otasi –Amir Tarag‘ay , Tarag‘aybek.

Onasi – Tegina Xotun, Tegina begin.

Rivoyat qilishlaricha, kunlardan bir kun sohibqironning sakkizinch bobosi Qochuvli bahodir tush ko‘ribdi, tushida uning qo‘ynidan bir yulduz uchib chiqib jamol ko‘rgizibdi va shu zahotyoq so‘nibdi, keyin ikkinchisi, uchinchisi, to‘rtinchisi yarqirab chiqibdi,bari so‘naveribdi. Bu hol etti marta takrorlanibdi. Biroq sakkizinch martasida katta porloq yulduz otilib chiqibdi – yu,butun dunyoni yoritib yuboribdi! Mana shu Amir Temur yulduzi deb taxmin qilinadi.Undan yana bir necha kichiq yulduzlar paydo bo‘libdi, katta porloq yulduz mag‘rib chizig‘iga bosh qo‘yib so‘ngandan keyin, kichiq yulduzlar porlashda davom etibdilar.

Amir Temurning bolalagi: – bolaligidanoq tabiatan og‘ir bosiq, zehni o‘tkir, shoshilmay fikrlaydigan Temurbek dastavval maktabda saboq oladi, savodni chiqaradi, ustozlar nazoratida kamon dastasini ushslash, o‘q uzish,nayza tutish, otlarni saralay olish, shikorlarni uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini yaxshilab o‘rgandi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temurbek o‘n ikki yoshida tenqurlari bilan “poshsho- vazir” o‘ynashar ekan. Temurbek podsho bo‘lar, qolganlarning xar biriga bir “mansab” berilar, “gunohkor” odamni jazolab, ”yurt” boshqarar ekan.O‘n ikki yoshligidayoq yurt boshqarish havosini olishga intilish kuchli bo‘lgan, niyatni katta qilgan...

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan “O‘G‘IL BOLALAR” uchun «Temurbeklar» dasturi tugarak sifatida faoliyat olib boriladi.

«Temurbeklar» dasturining maqsadi:

- tarbiya aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, ugil bolalarda insonparvarlik, mehribonlik, himmatlilik, mexnatsevarlik, rostguylik, o‘zaro g‘amxo‘rlik, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam, o‘z faoliyatini mustaqil ravishda idora etish, kattalar topshirig‘ini bajarish kabi his tuyg‘ularini shakllantirishdan iborat.

“TASDIQLAYMAN”

-MTT direktori

-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti katta guruhlar uchun

“Temurbeklar” to‘garagi

ISH REJASI

	Mavzu
1	Vatan aziz
2	O‘zbekiston - mening vatanim
3	Davlat gerbi
4	Davlat bayrog‘i
5	Ota- onaga hurmat
6	Bizning oila
7	Onamizga sovg‘a
8	Bayramga sovg‘a
9	O‘qilon va non
10	Nima yaxshi-yu, nima yomon
11	Bizning ko‘cha
12	Kiyinish odobi
13	Amir Temurning jayxundan shoshilinch o‘tishi
14	G‘ozlar –g‘ozlar
15	Ona tovuq va jo‘jalar
16	Bobur va kabutar

17	Bo‘ri va quyonchalar
18	Dasturxon odobi
19	Shirin so‘z
20	Shirinso‘z bo‘lish
21	Yalpiz
22	Navro‘z - yangi kun
23	Mehmonga borish odobi
24	Mehmon kutish odobi
25	Navro‘z bayrami
26	Ahil qalamlar
27	Nimaning pati
28	Sholg‘om tortish
29	Tangani ko‘tar
30	Qo‘lingni ko‘tar
31	Oqsoq turna
32	Tegirmonda to‘p
33	O‘rmonchi
34	Baliqlar va nahang
35	Mergan bola
36	Hayvonlar qiroli

VATAN AZIZ

Inson uchun o‘z vatani aziz va muqaddas. Cho‘lda o‘rmalab yurgan jonivorlar uchun qumli sahro, issiq cho‘l qadrli. Ular boshqa sharoitda yashay olmaydi. Ko‘kda parvoz qiladigan qushlarning ham, dengiz va daryolarda suzadigan baliqlarning ham o‘z oshyonlari bor. Inson ham qayerda tug‘ilib o‘ssa - o‘sha joyga mehr qo‘yadi va o‘sha makon uning vatani bo‘ladi.

Demak, Vatanni sevish, vatanparvar bo‘lish, uning har bir giyohi, toshi, suvi, qumini ardoqlash, bir muddat ko‘rmasa sog‘inib qolish inson tabiatiga xos. Shuning uchun ham inson o‘z ixtiyori bilan dunyoning turli-tuman burchaklariga borib ilm olsa ham, hunar o‘rgansa ham, tijoratga chiqsa ham safar davomida o‘z vatanini qo‘msaydi, sog‘inadi. Tug‘ilib o‘sgan yurtiga talpinadi. Siz ham mehmonga borsangiz, birozdan keyin zerikasiz, nimadir yetmayotganini ich-ichingizdan his qilasiz. Bu o‘z uyingiz, o‘zingiz yashayotgan muhitga talpinishdir, chunki faqat o‘z uyingizda o‘zingizni qulay sezasiz. Siz yashayotgan uy, sizni ulg‘aytirayotgan mahalla ham, aslida, kichik bir vatan. Siz Vatanni sevishingizni qaydan bilasiz? O‘z uyingizni yaxshi ko‘rishingiz, bog‘changizni yaxshi ko‘rishingiz, tabiatdagi daraxtlarga ozor bermaslik Vatanni sevish sanaladi.



O'ZBEKISTON - MENING VATANIM

Vatanni sevish hissi insonda bolalikdan shakllanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o 'g 'il-qizlarni vatanparvar, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun har bir mashg 'ulotga mazkur mavzuga daxldor ma'lumotlarni kiritib borish lozim. « O 'zbekiston - mening Vatanim» mavzusiga daxldor o 'yinlarni barcha markazlarda olib borish mumkin.

O 'yin mashg 'ulotining maqsadi: bolada o 'zi yashayotgan maskan haqida tasavvurni boyitish, xalqiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg 'ularini shakllantirish, milliy g 'ururni tarbiyalash.

AKTdan foydalanib, davlatimiz madhiyasini barcha bирgalikda tinglaydi. Bu bolajonlami muhitga olib kiradi. Madhiya tugagandan so'ng tarbiyachi bolalardan bu qanday ohangligini so'raydi. Shunda tarbiyachi davlat madhiyalari yangraganda o'midan turib, o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib, jo 'r bo'lib aytish kerakligini uqtiradi. Madhiya 1992-yil 10-dekabrdagi « O 'zbekiston Respubliksi Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qonun bilan tasdiqlanganini, matn muallifi - Abdulla Oripov, bastakori Mutual Burxonov ekanligini eslatib o 'tadi. Tarbiyachi madhiyani yod aytishini so'raydi. Yurtimiz quyoshli, issiq o'lkaligi sabab davlatimiz ramzlarida ham quyosh aks etganini tushuntiradi. Quyosh rasmi yana qaysi davlat ramzlarida borligini so'raydi. Bolalar quyoshning gerbimizda tasvirlanganligini aytishadi. Bolajonlardan gerb haqidagi she'mi ifodali o'qishini so'raydi:

Gerbimizda tog'lar bor,
Bog'lar bor, daryolar bor.
O 'ng tomoni bug'doyzor,
Chap tomoni paxtazor.
Chambarakka o'ralgan,
Vodiy uzra quyosh bor.
Hurligimiz ramzi -
Humo degan qushi bor.



Davlat gerbi

O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbi 1992-yil 2-iyulda tasdiqlangan. Gerb markazida baxt va ozodlik ramzi bo‘lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini olib turgan holatda tasvirlangan. Uning ortida Amudaryo va Sirdaryo bilan yashnab turgan vodiy uzra chiqayotgan quyosh tasvirlangan. O‘ng tarafda bug‘doy boshqqlari, chap tarafda esa ochilib turgan paxta tasviri bor. Gerbning yuqori qismida mamlakat birligi ramzi bo‘lgan sakkiz qirrali yulduz joylashgan. Uning ichidagi yarimoy va yulduz musulmonlarning muqaddas ramzlari hisoblanadi. Davlat gerbining pastki qismida “O‘zbekiston” yozuvi hoshiyada berilgan



veb-saytimiz: Zokirjon.com

*Zokirjon.com veb-saytimiz orqali o‘zingizga kerak
bo‘lgan hujjatlarni yuklab oling.*

Zokirjon Admin bilan

*+99891-328-88-38 nomerga yoki jek567 izlab
telegramga yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z
vaqtida javob beriladi*

*Katta guruhlarga 43 listdan iborat Temurbeklar
to‘garagini to‘liq holda olish uchun
telegramdan yozing.*



*Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt*

To‘lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabihev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**